

AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI SAMARALI BOSHQARISHNING KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDAGI AHAMIYATI

Negmatillayeva Zarina Baxodirovna

Iqtisodiyot va menejment kafedrasi stajyor o‘qituvchisi

Muxsinov Bekzod Toxirovich

Buxoro davlat texnika universiteti

"Moliyaviy texnologiyalar, iqtisodiyot va logistika"

kafedrasi mudiri, i.f.f.d dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada aholi turmush farovonligini samarali boshqarishning kambag‘allikni qisqartirishdagi iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda aholi daromadlarini oshirish, bandlikni ta‘minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, inson kapitalini rivojlantirish hamda hududlarni kompleks rivojlantirish orqali kambag‘allik darajasini pasaytirishning zamonaviy mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajribalar va O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar asosida aholi farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi boshqaruv yondashuvlari baholangan. Tadqiqotda tahliliy, qiyosiy va tizimli yondashuvlardan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: aholi turmush farovonligi, ijtimoiy himoya, bandlik, inson kapitali, daromadlar, iqtisodiy rivojlanish, farovonlik, barqaror taraqqiyot.

KIRISH

Bugungi kunda aholi turmush farovonligini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish masalalari dunyoning aksariyat davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash, aholi daromadlarini oshirish, sifatli ta‘lim va sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish aholining turmush darajasini yuksaltirishning muhim omillari sifatida e‘tirof etiladi. Shu bois zamonaviy iqtisodiyotda turmush farovonligini samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish kambag‘allikni qisqartirish siyosatining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

Dunyo miqyosida iqtisodiy beqarorlik, inflyatsiya, iqlim o‘zgarishlari, pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanish jarayonlari hamda mehnat bozoridagi strukturaviy o‘zgarishlar aholining ijtimoiy himoyaga bo‘lgan ehtiyojini yanada kuchaytirdi. Bunday sharoitda kambag‘allikni faqat daromadlar yetishmovchiligi sifatida emas, balki ta‘lim, sog‘liqni saqlash, bandlik, uy-joy, moliyaviy xizmatlardan foydalanish va inson kapitalining rivojlanish imkoniyatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida baholash zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi aholi turmush farovonligini samarali boshqarishning kambag'allikni qisqartirishdagi o'rnini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, mavjud boshqaruv mexanizmlarini baholash hamda ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida turmush farovonligini belgilovchi asosiy omillar, kambag'allikni yuzaga keltiruvchi sabablar hamda ularni kamaytirishda davlat boshqaruvi, ijtimoiy siyosat va iqtisodiy islohotlarning o'zaro bog'liqligi tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Farovonlik nazariyasining zamonaviy rivojlanishida Amartya Senning "Capabilities Approach" konsepsiyasi alohida o'rin tutadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, inson farovonligi faqat daromad miqdori bilan emas, balki uning ta'lim olish, sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish, munosib mehnat qilish, jamiyat hayotida faol ishtirok etish hamda o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Ushbu nazariya keyinchalik inson taraqqiyoti konsepsiyasining shakllanishi hamda BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan Inson taraqqiyoti indeksini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

M. Ravallion tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kambag'allikni baholash metodologiyasi takomillashtirilib, kambag'allik chegarasini aniqlash, iste'mol xarajatlarini hisoblash hamda ijtimoiy siyosat samaradorligini baholashning ilmiy-uslubiy asoslari ishlab chiqilgan. Olimning fikricha, kambag'allikni qisqartirish strategiyasi iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda daromadlarning adolatli taqsimlanishi va aholining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga ham asoslanishi lozim.

Sabina Alkire va James Foster tomonidan ishlab chiqilgan Ko'p o'lchamli kambag'allik indeksi (Multidimensional Poverty Index – MPI) kambag'allikni baholashning eng zamonaviy yondashuvlaridan biri hisoblanadi. Ushbu metodologiyada sog'liqni saqlash, ta'lim hamda turmush darajasi bo'yicha bir nechta indikatorlar kompleks ravishda baholanadi. Mazkur yondashuv ko'plab davlatlarda kambag'allikni qisqartirish dasturlarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

J. Stiglitz, A. Sen va J.-P. Fitoussi boshchiligidagi komissiya tomonidan tayyorlangan hisobotda mamlakatlarning rivojlanish darajasini baholashda yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichining o'zi yetarli emasligi asoslab berilgan. Mualliflar farovonlikni baholashda daromadlar taqsimoti, aholi salomatligi, ta'lim sifati, ekologik holat, shaxsiy xavfsizlik, fuqarolik faolligi hamda subyektiv hayot sifati kabi ko'rsatkichlardan kompleks foydalanish zarurligini ta'kidlaydilar. Ushbu yondashuv bugungi kunda farovonlikni boshqarishning nazariy asoslaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Xorijiy tadqiqotlarda kambag'allikni qisqartirishning eng samarali vositalari

sifatida inson kapitalini rivojlantirish, kasbiy ta'limni takomillashtirish, bandlikni kengaytirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy himoya tizimini manzilli tashkil etish alohida ko'rsatib o'tilgan. Jahon banki, BMT Taraqqiyot dasturi hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hisobotlarida ham iqtisodiy o'sishning ijtimoiy inklyuzivligi kambag'allikni qisqartirishning asosiy omili sifatida baholanadi. Xususan, V.N. Bobkov, N.M. Rimashevskaya, L.I. Abalkin, A.Yu. Shevyakov va boshqa olimlar aholi turmush darajasini baholash mezonlari, ijtimoiy standartlar hamda kambag'allikni kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha muhim ilmiy xulosalarni ilgari surganlar.

Iqtisodchi olimlar Q.X. Abdurahmonov, B.Yu. Xodiyev, A.V. Vahobov, N.Q. Yo'ldoshev, O.Q. Hoshimov, Sh.R. Holmo'minov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan aholi bandligini ta'minlash, daromadlarni oshirish, inson kapitalini rivojlantirish hamda kambag'allikni qisqartirishning institutsional asoslari chuqur o'rganilgan. Ularning ilmiy ishlari mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning nazariy va amaliy asoslarini boyitishda muhim manba hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda aholi turmush farovonligini samarali boshqarishning kambag'allikni qisqartirishga ta'sirini kompleks baholash maqsadida tizimli, qiyosiy va analitik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi turmush farovonligi va kambag'allik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda xalqaro va milliy ilmiy manbalar, statistik ma'lumotlar hamda normativ-huquqiy hujjatlar o'zaro uyg'un holda o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aholi turmush farovonligini samarali boshqarishning kambag'allikni qisqartirishdagi ahamiyatini baholash shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda kambag'allikni kamaytirish faqat moddiy yordam ko'rsatish bilan emas, balki inson kapitalini rivojlantirish, bandlikni ta'minlash hamda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish orqali amalga oshirilmoqda. Shu sababli dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlari tajribasini o'rganish O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini baholashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, kambag'allikni qisqartirishning yagona universal modeli mavjud emas. Har bir davlat o'zining iqtisodiy rivojlanish darajasi, demografik holati hamda ijtimoiy siyosatidan kelib chiqib turli mexanizmlardan foydalanadi. Jumladan, Skandinaviya davlatlarida universal farovonlik modeli qo'llanilib, yuqori soliqlar hisobiga aholining barcha qatlamlari uchun bepul yoki arzon ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar taqdim etiladi. Ushbu model aholining daromadlar bo'yicha keskin tabaqlanishini kamaytirishda yuqori samaradorlikni namoyon etmoqda.

AQSh tajribasi esa bozor iqtisodiyotiga asoslangan liberal modelni aks ettiradi.

Mazkur modelda davlatning bevosita aralashuvi cheklangan bo'lib, ijtimoiy yordam asosan ehtiyojmand qatlamlarga yo'naltiriladi. Bunda mehnat bozori faolligini rag'batlantirish hamda xususiy sektor imkoniyatlaridan keng foydalanish asosiy ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Tahlillar davomida eng katta natijalardan biri Xitoy tajribasida kuzatiladi. 1978–2020-yillar mobaynida mamlakatda 800 million nafardan ortiq aholi kambag'allikdan chiqarilgan bo'lib, bu dunyo miqyosida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha erishilgan natijalarning qariyb 75 foizini tashkil etadi. Ushbu muvaffaqiyat "Targeted Poverty Alleviation" – maqsadli kambag'allikni qisqartirish strategiyasining joriy etilishi bilan izohlanadi. Mazkur tizimda har bir oila, mahalla va hudud bo'yicha alohida rivojlanish dasturlari ishlab chiqilib, yordam individual ehtiyojlardan kelib chiqib taqsimlangan.

Xususan, Qozog'istonda joriy etilgan ijtimoiy kontrakt tizimi yordam oluvchi fuqarolarning kasb-hunar egallashi yoki tadbirkorlik faoliyatini boshlashi sharti bilan davlat ko'magini nazarda tutadi. Rossiyada esa manzilli ijtimoiy yordam, ona kapitali va bolalar nafaqalarini takomillashtirish orqali aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash tizimi rivojlantirilgan.

Mazkur tajribalarni qiyosiy tahlil qilish natijasida O'zbekiston uchun bir qator muhim xulosalar shakllantirildi. Birinchidan, universal ijtimoiy xizmatlar hamda manzilli ijtimoiy yordam mexanizmlarini uyg'unlashtirish kambag'allikni qisqartirish samaradorligini oshiradi. Ikkinchidan, ijtimoiy kontrakt tizimini keng joriy etish aholining davlat yordamiga qaramligini kamaytirib, ularning iqtisodiy faolligini rag'batlantiradi. Uchinchidan, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqib differensial yondashuvni qo'llash zarur. Chunki mamlakat hududlari o'rtasida kambag'allik darajasi sezilarli darajada farqlanadi. Masalan, 2024-yil yakunlariga ko'ra, Navoiy viloyatida kambag'allik darajasi 5,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, Xorazm viloyatida ushbu ko'rsatkich 11,9 foizga teng bo'lgan. Bu esa hududlar kesimida alohida rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida O'zbekistonda kambag'allikni baholash metodologiyasining ham takomillashib borayotgani aniqlandi. Xususan, 2021-yildan boshlab minimal iste'mol xarajatlari mezoniga asoslangan yangi metodologiya joriy etildi. Natijada kambag'allikni baholash xalqaro standartlarga yaqinlashtirildi hamda ijtimoiy yordamning manzilliligi sezilarli darajada oshirildi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda mamlakatda kambag'allik darajasi izchil pasayish tendensiyasini namoyon etmoqda. Xususan, Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2021–2025-yillar davomida kambag'allik darajasi 17,0 foizdan 5,8 foizgacha kamaygan. Bu davrda kambag'allik darajasi 11,2 foiz punktga qisqargan bo'lib, bu mamlakatda amalga oshirilgan bandlikni oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va manzilli ijtimoiy himoya choralarining ijobiy natijasini ko'rsatadi.

1-jadval. O'zbekistonda kambag'allik darajasining o'zgarishi¹

Kesim	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	17,0	14,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	20,8	19,9
Andijon viloyati	19,3	17,4
Buxoro viloyati	14,5	11,9
Jizzax viloyati	21,1	16,1
Qashqadaryo viloyati	17,9	12,7
Navoiy viloyati	4,7	9,2
Namangan viloyati	14,1	12,8
Samarqand viloyati	18,2	14,0
Surxondaryo viloyati	13,3	13,7
Sirdaryo viloyati	30,5	19,5
Toshkent viloyati	22,7	14,5
Farg'ona viloyati	3,9	11,6
Xorazm viloyati	19,9	19,1
Toshkent shahri	8,1	8,5

XULOSA

Tadqiqot davomida xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganilib, kambag'allikni qisqartirishning turli modellari qiyosiy tahlil qilindi. Xususan, Skandinaviya davlatlarining universal farovonlik modeli, Xitoyning maqsadli kambag'allikni qisqartirish strategiyasi, Braziliyaning shartli ijtimoiy transferlar tizimi hamda Qozog'istonning ijtimoiy kontrakt mexanizmi kambag'allikni kamaytirishda samarali vositalar ekanligi aniqlandi. Mazkur tajribalar shuni ko'rsatadiki, davlatning faol ijtimoiy siyosati, inson kapitaliga investitsiyalarni ko'paytirish va aholini barqaror bandlik bilan ta'minlash kambag'allikni qisqartirishning asosiy omillari hisoblanadi.

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Kambag'allikni baholashning yangi metodologiyasi joriy etilishi, manzilli ijtimoiy yordam tizimining takomillashtirilishi, mahallabay ishlash tizimi, aholini kasb-hunarga o'qitish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar aholining turmush darajasini

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Aholining turmush darajasi va kambag'allik ko'rsatkichlari*. <https://stat.uz>; World Bank. *Poverty & Equity Brief: Uzbekistan*, October 2025. Washington, DC: World Bank.

oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar, bandlik sifati va inson kapitalini rivojlantirish bilan bog'liq masalalar ushbu yo'nalishda izchil ishlarni davom ettirish zarurligini ko'rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sen, A. (1999). *Development as Freedom*. Oxford University Press.
2. Stiglitz, J. E., Sen, A., & Fitoussi, J.-P. (2009). *Report by the Commission on the Measurement of Economic Performance and Social Progress*.
3. Alkire, S., & Foster, J. (2011). Counting and Multidimensional Poverty Measurement. *Journal of Public Economics*, 95(7–8), 476–487.
4. World Bank. (2024). *Poverty, Prosperity and Planet Report*.
5. United Nations Development Programme. (2025). *Human Development Report 2025*.
6. OECD. (2024). *How's Life? Measuring Well-being*.
7. World Bank. (2024). *World Development Indicators*.
8. International Labour Organization. (2024). *World Employment and Social Outlook*.
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2025). *O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari*.